



Yangi yilga yangi kitoblar

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Akbar Hakimovning uzoq yillik izlanishlari samarasi sifatida yaratilgan "O'zbekiston san'at tarixi (qadimgi davr, o'rta asrlar, hozirgi zamon) asarini haqiqatda san'at xazinasi deyish mumkin. Ushbu fundamental kitob-albomda O'zbekistonda san'atning paydo bo'lishidan hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi tasviriy va amaliy-bezak san'ati, me'morchilik, haykaltaroshlik, miniatyura kabi san'at sohalarining taraqqiyoti ko'plab ilmiy manbalar va artefaktlar yordamida ochib berilgan. O'zbekiston san'atshunosligida bu kabi majmuaviy asar shu kungacha yaratilmagan edi.





Mustaqillik yillari O'zbekiston san'atining tarixiy rivojlanish konsepsiyasi yangicha talqinga ega bo'lib, endilikda u yaxlit tarixiy-badiiy jarayon sifatida tadqiq va tahlil etilmoqda. Kitob sahifalarida O'zbekiston badiiy madaniyati rivojlanishining barcha bosqichlarini — qadim zamonlardan hozirgi kungacha kuzatishga imkon beradigan O'zbekiston san'ati, me'morchiligi va hunarmandchiligi yodgorliklari taqdim etilgan.





Asar tili sodda va ravon bo'lib, o'quvchida qiziqish va kuchli ishtiyoq uyg'otadi. 9 bobdan iborat asar, qiziqarli va o'ziga xos nomlangan ko'plab kichik qismlardan tashkil topgan. Masalan: Ilohiy obi hayotni qo'riqlaydigan sher; Afrosiyob. Shoh huzuriga ehtirom bildirgani keldim; Maqbara: xotira vaqtning o'zligidan darak beradi; Marjoniy fondi miniatyuralarining oltin yog'dusi; Rangtasvirdagi afsona va haqiqat: asrlar oralig'i; Me'morchilik mustaqillik ramzi sifatida.

"O'zbekiston san'at tarixi" o'zbek, rus va ingliz tillarida alohida kitob shaklida nashr etilgan. Muqovalar uchun o'zbek tilida "Avliyo oqsaqol yigitga saboq beradi" (XVII asr) zarhal miniatyurasi, rus tiliga Afrosiyob devoriy suratlari (VII-VIII asrlar), ingliz tiliga Budda boshi (San'atshunoslik instituti fondidan) tanlangan. "Zilol buloq" nashriyotida tayyorlangan 528 sahifadan iborat asar yuqori sifatda Turkiyaning Megabasim bosmaxonasida chop etilgan. Asarda mingdan ortiq artefaktlarning rangli va oq-qora suratlari berilgan. Suratlar respublikamiz muzeylari bilan birga, xorijning mashhur Metropoliten, Britaniya, Ermitaj, Tretyakov galereyasi, Marjoniy fondi va boshqa muzey va markazlaridan to'plangan.

Kitob-albomning rus va ingliz tillarida ham nashr etilishi jahon olimlari uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Asar dunyo hamjamiyati oldida O'zbekiston san'ati qadimiy ildizlarga ega ekanligi va uzluksiz jarayon sifatida rivojlanib kelganligini isboti sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur nashr san'atshunoslik sohasida anchadan beri kutilayotgan fundamental asar bo'lib, Mustaqil O'zbekiston ijtimoiy - gumanitar fanidagi katta yutuqi va bu yo'nalishdagi bo'lajak kashfiyotlarni poydevori sifatida baxolanishi mumkin. Kitob-albom yosh avlodni san'atga qiziqishi orqali ularni ajdodlardan faxrlanish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, olimning poetika "Исламское искусство Узбекистана: философия и поэтика" asari ham nashr etildi.

